
Favqulodda vaziyatlarni oldini olish bo'yicha maxsus o'quv-mashqlari o'tkazildi



Favqulodda vaziyatlarni oldini olish bo'yicha maxsus o'quv-mashqlari o'tkazildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 19 fevraldagi "Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko'chish va yer ko'chki hodisalari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini tugatish borasida chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-585-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri - Toshqinga qarshi Hukumat komissiyasi raisi tasdiqlangan 2020 yil 23 mart kunidagi № 01-25/1-1626-sonli Hukumat komissiyasi majlisining 1-sonli bayoni, Farg'ona viloyati hokimi-Toshqinga qarshi viloyat komissiyasi raisi tasdiqlangan 2020 yil 25 mart kunidagi 71/01-49-sonli bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida, 2020 yilning bahor-yoz mavsumida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan sel va suv toshqinlari bilan bog'liq tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlardan aholi va hududlarni muhofaza qilish, sel va suv toshqinlarini barqaror va xavfsiz o'tkazib yuborishini ta'minlash hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan kechiktirib bo'lmaydigan tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil etish maqsadida, tuman hokimi Fuqaro muhofazasi boshlig'ining 2020 yil 27 aprely kunidagi "Tumandagi sel yo'llarini tozalash hamda qirg'oqlarini mustahkamlash bo'yicha maxsus-taktik o'quv mashqlarini o'tkazish to'g'risida"gi 4-sonli buyrug'iga asosan 2020 yil 27 may kuni "Hazrati Ali mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi "Sarikanda" selxonasi"ni tozalashda tuman irrigatsiya bo'limi hamda Hazrati Ali mahalla fuqarolar yig'ini fuqaro muhofazasi tuzilmalarining hamkorlikdagi harakatlari" mavzusida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.



O'quv mashqda tuman hokimining o'rinbosari tomonidan tegishli topshiriq va ko'rsatmalar berildi. Maxsus-taktik o'quv mashqi davomida tuman Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik markazi tomonidan Hazrati Ali mahalla fuqarolar yig'inidagi 125 ta xonadonlarni 28112 m² dezinfektsiya ishlari olib borildi. Tuman avtoyul xizmati tomonidan Timsol va Hazrati Ali ko'chalarini 150 metr joyi 99 m³ shag'al yotqizilib obodonlashtirish ishlari olib borildi. Hazrati Ali mahalla fuqarolar yig'ini aholisi tomonidan 380 metr ichki ariqlar tozalandi.



Maxsus taktik o'quv mashq davomida Hazrati Ali mahalla fuqarolar yig'inidagi "Sarikanda" selxonasi 170 p/m joyi 1550 m³ shag'aldan tozalandi hamda selxonaning sel tusish dambasi kutarilib mustahkamlandi. Ushbu ishlarni bajarishda 108 nafar tuman FM xizmatlari va mahalla aholisi qatnashib, 11 ta turli rusmdagi texnikalar jalb etildi.

J. Jalolov - bo'lim boshlig'i,

podpolkovnik

2020-05-28 15:41:49